



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 27-iyun, payshanba,

75 (23.952)-son

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## MATBUOT VA OMMAMVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

### Qadri do'stlar!

Avalambor, o'z iste'dodi va mahorati, fidokorona mehnati bilan el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, milliy jurnalistikamiz jonkuyularini, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan muhtaram faxiliyalmizni 27-iyun – Matbuot va ommamviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimi muborakbos etib, barchangizga yuksak hurmatim va egzu tilaklarimni izhor etaman.

Ma'lumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonda bish uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilan-gan Konstitutsiyasida ommamviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkmalab qo'yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo'lda keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroti, o'rni va nufuzini yana-da kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkorali kni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdon shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatisht, fuqarolarni tarqatish qonun murojaatlarini o'rganish va hal qilish borasida sizlarning o'rningiz va ta'sirningiz tobora ortib borayotganini bar-chamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu o'rinda gazeta va jurnalimiz, tele va radio kanallar, ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi dolzarb chiqishlar, muammoli masalalar yuzasidan mutaxassis va ekspertlar ishtirotidagi ko'rsatuv va eshitirishlar, tahliyli sharhlar, babs-munozalar sezilarli ravishda ko'payganini ta'kidlash lozim.

Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda-gi muammolar bo'yicha berib borilayotgan tanqidiy va taholib materiallar joylarda mudrab o'tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uydadan uyg'otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

Muxtasar aytganda, kuyunchak va oljanob jurnalistlarimiz, faol blogerlarimiz o'zlarining qat'iy pozitsiyasi, haqqoniy so'zi bilan hayotimizdagi o'tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunoqcarashini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Hech shubhasiz, bularning barchasi milliy media vositalarimiz "to'rtinch hokimiyat" darasiga yaqinlashib borayotgani dan dalolat beradi. Shu bilan

birga, bunday yuksak marraga yetish oson emasligi, bu yo'lda to'siq va qiyinchiliklar bo'lishi tabiyidir.

Lekin, qanchalik qiyin bo'imasin, bu boradagi ishlarmizni qat'iyat bilan davom ettiramiz.

### Muhtaram do'stlar!

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati na-faqat "to'rtinch hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo'nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko'proq bo'lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko'p qirrali professional bilim va malaka-ga, yuksak ma'naviy-intellektual fazilatlarga ega bo'lgan zamonaliv jurnalist kadrler tayorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobat-dosh milliy kontent bilan to'ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunnyoda yuz berayotgan voqe'a-hodisalarini milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o'ta muhim, deb o'yayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg'on va assosiz ma'lumotlarini tarqatish orqali odamlarni al-dash, to'g'ri yo'ldan chalg'itish holatlari ko'payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan vazifa qilib qo'ymodqa. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me'yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirot etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilayotgan barcha yurt-doshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning mashaqqatli mehnati rag'batlanirish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni outlug' kasb bayraminingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlilik, sharafli faoliyatizingiza yangi yutuq va omadlar, xonardonlarinzinga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Fursatdan foydalaniib, bundagi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo'lsin, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti



## DUNYO YOSHLARI SAMARQANDDA UCHRASHDI

Avval xabar qilganimizdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 26-30-iyun kunlari O'zbekistonda birinchi marotaba "Butunjahon yoshlari festivali" o'tkazilishi rejelashtirilgan edi.

Kecha mazkur nufuzli tadbirdirning ochilish marosimi Samarqanddagagi "Boqiy shahar" majmuasi amfiteatridda o'tkazildi.

- Bu nufuzli tadbirda 92 davlatdan 700 nafardan ziyyod yoshlari ishtirot etyapti, - deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rmosari Dilnoza Kattaxonova. - Mazkur tadbir 15 ta loyihami qamrab, har bir davlat yoshlari o'z g'oyalalarini o'rta ga tashlaydi.

Xalqaro turizm markazida festival doirasidagi tadbirdarlardan biri "Ommalashtirishga arzigulik g'oyalarni kashf eting!" mavzusida yuzma-yuz uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazildi.

- Tadbirda dunyo yoshlari qatorida ishtirot etayotganimidan xur-sandman, - deydi qozog'istonlik Yekaterina To'xtarova. - "Mehribonlik" ko'ngillilar jamiyatni vakiliman. Tashkilotimiz 20 yildan beri faoliyat yuritib keladi va imkoniyati cheklangan fuqarolarga turli shakkarda yordam beradi, shuningdek, sport va ijodiy to'garaklar faoliyatini olib boradi. Festivalda yangi do'star orttirishni, ular bilan g'oyalarni almashishni maqsad qilganimiz. Men bilan birqalikda Qozog'istonning 50 nafarga yaqin yoshlari Samarqandga keldi, ularning har biri jamiyatning u yoki bu yo'nalishi rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

"Butunjahon yoshlari festivali" oldidan Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev bir qator davlatlarning yoshlari ishlari bo'yicha tashkilotlari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Festivalning yalpi majlisida Alisher Sa'dullayev festival ishtirotichilari o'zbekistonlik yoshlari uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida gapirib berdi.

- Mamlakatimizda yoshlarni birlashtirishga, ularning iqtidorini yuza-ga chiqarishga xizmat qiladigan ikki tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi A.Sa'dullayev. - Ular O'zbekiston yoshlari ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligidir. Bu tashkilotlari tashabbusi bilan ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Birgina "Yosh kitobxon" tanloviga 4 million 700 ming nafardan ziyyod yigit-qiz qamrab olindi va ularning 20 nafariga avtomobil sovg'a qilindi.

Tadbirda bir qator davlatlarning yoshlari ishlari bo'yicha vazirlari, yoshlari tashkilotlari rahbarlari so'zga chiqib, festival ishiga omad tilidi.

Festivalda ta'lim, innovatsiya, IT, biznes, media, madaniyat, san'at, sport kabi yo'nalishlarda nufuzli spikerlar qatnashyapti.

"Butunjahon yoshlari festivali" doirasidagi tadbirdilar Samarqanddan tashqari, Buxoro, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida ham davom etmoqda.

To'iqin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## Narpay va Past Darg'omda hokimlar almashdi



Kecha xalq deputatlari Narbay va Past Darg'om tumanlari kengashlari ning navbatdan tashqari sessiyalari o'tkazildi.

Viloyat hokimi E.Turdimov ishtirot etgan sessiyalarda tashkiliy masalalar ko'rildi.

2020-yildan buyon Narbay tumaniga rahbarlik qilgan Rahmonov Sherzod Shuhratovich boshqa ishga o'tayotganligi munosabati bilan tuman havozi lavozimidan ozod etildi.

Deputatlar shu paytgacha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Bo'ronov Sherbek Erkinovichni Narbay tumanı hokimi lavozimiga tasdiqladilar.

2023-yil aprel oyidan buyon Past Darg'om tumaniga rahbarlik qilgan Vahobjon Murotqobilov o'z arizasiga ko'ra lavozimidan ozod etildi.

Shu paytgacha Narbay tumanı hokimi vazifasida faoliyat ko'rsatgan Rahmonov Sherzod Shuhratovich Past Darg'om tumanı hokimi lavozimiga tasdiqlandi.

Viloyat hokimi E.Turdimov ikkala tumanda rahbarlar va faollar oldida turgan vazifalarga e'tibor qaratdi.

## MUKOFOT MUBORAK!

Davlatimiz rahbarining "Matbuot va ommamviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi maxsus muxbir Eshonqulov Zamon Asrorovich "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Hamkasbimizni yuksak mukofot bilan tabriklaymiz!



## Bu yil kimlar eng faol bo'ldi?

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi boshqaruv hay'atining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda 27-iyun – Matbuot va ommamviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan viloyat hokimligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamda viloyat axborot va ommamviy kommunikatsiyalar boshqarmasi hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Samarqandning eng faol jurnalisti" tanlov yakunlari ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, quydagilar tanlov g'oliplari deb topildi:

### BOSMA NASHRLAR YO'NALISHIDA

Barotov Asqrarjon Orziqulovich - viloyat "Zarafshon" gazetasi muxbir;

Yuldashev Faridun Farhodovich - viloyat "Ovozi Samarkand" gazetasi muxbir;

Musurmonov Bekzod Erkinovich - Samarqand shahar "Samarqand" gazetasi muxbir;

Quvondiqov Zohid Nazarovich - Narpay tumanı "Navqiron Narpay" gazetasi muxbir;

Nizomova Munisa Najmuddin qizi - shahar "Samarqand yoshlari" gazetasi muxbir.

### TELEVIDENIYE YO'NALISHIDA

Eshonqulov Zamon Asrorovich - viloyat teleradiokompaniyasining maxsus muxbir;

"Sport" telekanalining viloyatdagi muxbir;

### RADIO YO'NALISHIDA

Tog'ayeva Zebiniso Murtazayevna - viloyat teleradiokompaniyasi radio guruhi birinchi toifali muharriri;

### AXBOROT XIZMATI YO'NALISHIDA

Sagdullaev Jahongir Ahmadjon o'g'li - viloyat IIB axborot xizmati boshlig'i – ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining matbuot kotibi;

### FOTOJURNALISTIKA YO'NALISHIDA

Etoyev Husan Fazliddinovich - viloyat gazetalarini jamaatchi fotomuxbir.

### RAG'BATLANTIRUVCHI

Yo'Idoshev Abdulaziz Abdinazarovich - "Xalq so'zi" gazetasining viloyatdagli muxbir.

Sayfullayev Soyibjon Saydahma-dovich - Jomboy tumanı "Jomboy tongi" gazetasini fotomuxbir.

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinch hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib sohaga aylanib bormoqda.  
SH. MIRZIYOYEV.

# MATBUOT -

## jamiyat ko'zgusi, ma'rifat targ'ibotchisi



Inson tashqi ko'rinishidagi qusurlarni oynaga qarab to'g'rilagani kabi jamiyat ham o'zidagi muammo va kam-chiliqlarni ommaviy axborot vositalari da ko'rib, ularni bartaraf etib boradi. Shu ma'noda, matbuot jamiyat ko'zgusi, adolat va haqiqat jarchisi, ma'rifat targ'ibotchisidir.

E'tiborli, bugun matbuotning "lokomotiv"i sanalgan jurnalistga o'z mahorat va salohiyatini, jasoratni namoyon etishi uchun hech qanday to'siq yo'q. Har bir OAV vakilining yangilik tarqatish, erkin so'z aytish huquqi qonun bilan kafolatlangan. Qolaversa, istagan kishi gazeta, jurnal, telestudiya, radiokanal, sayt ochishi mumkin. Davlat nafaqat o'z muassisligidagi, balki nodavlat OAVni ham qo'llab-quvlatmoqda.

Zero, so'z erkinligi faqat OAVgagina emas, avvalo, davlat uchun zarur va foydalidir. Chunki ochiqlik, oshkorlik bor joyda korrupsiya, tamagirlik, jinoyatchilik, qonunbuzilish holatlariga qarshi kuchli jamoatchilik nazoratini o'rnatish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu ma'noda, keyingi yillarda davlatimiz rahbarining ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga doir ko'plab hujjatlari qabul qilindi. Bundan tashqari, Prezidentimiz deyarli hamma uchrashuv va yig'ilishlarda -ommaviy axborot vositalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Masalan, Prezident o'tgan yilning ayni shu kunlarda jizzaxlik saylovchilar bilan uchrashubi vaqtida respublikamizdagi barcha OAV vakillarini kasb bayrami bilan qutlab: "6,5 yil ichda eng katta erishganimiz - ochiqligimiz. Qo'rquvimiz yo'q bo'lgani. Ijro organi rahbari biron qaror qabul qilishidan oldin ilgari hech narsa o'qimasdi, hozir kamida 10 marta o'qidi. Blogerlar nima deydi, OAV menga qanday baho beradi, degan savollarni o'ziga beryapti", deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, bugun ko'plab rahbarlar jurnalistlari chiqishlari, fuqarolar murojaati bilan hisoblashmoqda. Bu jarayoning muntazam va izchil monitoringi ham shakllanyapti. Rahbarlar faoliyatiga jamoatchilik bilan qanchalik mulloqot o'rnatgani, matbuot sahifalari, ijtimoiy tarmoqlarda chiqayotgan maqolalar, tanqidgi fikrlarga nechog'li munosabat bildirayotganiga qarab baho berilmoida. Faoliyati tanqid ostiga olin-gan har qanday mansabdorga tegishli choralar ko'rilyatqanini esa hayotda barchamiz ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz.

Endi ayrim raqamlarga e'tibor qaratsak.

Bugun viloyatimizda 36 ta gazeta-jurnal chop etilmoida. Ularning uchtaси viloyat nashri, 16 tasi shahar va tumanlar gazetalaridir. Shuningdek, xususiy nashrilar, tarmoq gazetalar, ilmiy, adabiy-badiiy jurnallar bor. Gazetalarning aksariyati A-2 hajmda, o'ttacha 2-2,5 ming nuxsada chop etilyapti. Bu nashrarning davriyligi ko'paydi, barcha gazeta va jurnallarning veb-saytlari joriy etildi.

Ammo tan olish kerak, tahririyatlarda jurnalist kadrlarga ehtiyoj bor. Tabiiyi, bu yetishmovchiliklar OAVning mazmun-mundarijasi, sifatiga salib ta'sir ko'rsatmoqda. Dastlab 16 yil davomida viloyat «Zarafshon» gazetasi tahririyati qoshida, 2 yilda buyon Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi qoshida faoliyat yuritish kelayotgan «Mahorat maktabi» bu kabi kamchiliklar ning o'rni qisman

**Akram HAYDAROV,**  
O'zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi viloyat  
bo'limi raisi.

## O'zimni qishloq muxbiridek his qilaman

Ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni yaqinlashaversa, bir vaqt-lar o'zim ham shu qozonda qaynaganim yodimga tushaveradi. Sobiq ittifoq davrida har bir xonadonga tuman, viloyat, respublika miqyosi-dagi barcha gazeta va jurnallar yetkazib berilardi. Birgina Qarnabota qishlog'imizda F.Ismoilova, M.Po'latova, M.Davronova kabi pochta-chi opalarimiz uyma-uy yurib, xat, gazeta va jurnallarni o'z vaqtida yetkazishga harakat qilishardi. Ushbu gazeta va jurnallarning ayrim-larida maqola, lavha va ocherklarim bilan qatnashib turardim.

1978-1981-yillarda Oqdaryo tumani Dah-bed shahrasidagi Samarqand qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish texnikumida ikkinchi mutaxassisli bo'yicha tahsil olish bilan birga, shu bilim yurtida ish yurituvchi bo'lib ishlardim. Bir kuni Samarqand shahridan Dahbed shahrasiga ketish uchun avtobus kutib tursam, "Moskvich" mashinasi kelib to'xtadi. Haydovchi qayerga borishimni so'radi. Manzilni aytgach u "yo'limiz ber ekан, tashlab o'taman, o'tiring" dedi. Mashinaga o'tirib olgach, hol-ahvol so'rashdik, tanishdik. Haydovchi o'zini Niyozon Aliyev, jurnalistman deb tanishtirdi.

Uning kayfiyati chog' edi.

- Hozirgina viloyat hokimligidan suhbat-dan o'tib kelyapman, Oqdaryo tumani "Le-ninizm yo'lidan" (hozirgi "Oqdaryo ovizi") gazetasiga muharrir etib tayinlandim, - dedi haydovchi. - Xursandchiligmimi kim bilandir bo'lishgim keldi.

Niyozon akani tabriklab, ijodiga baraka tiladim. Yo'boylab gurunglashib ketdik. Manzilga yetgach, Niyozon aka menga texnikumda o'tkaziladigan tadbirlar, xabar va yangiliklar haqida maqolalar yozib yuborishimni aytidi.

Ko'p o'tmay texnikumda o'tkazilgan



badiiy kecha haqida qog'oz qoralab, tahrir-yatga olib bordim. Yangi muharrir meni iliq kutildi. Ko'z oldimda maqolani o'qib, qog'ozning uyoq-bu yog'iga qalam urdi. Gazetaning navbatdagi sonida kichkinagi-na xabarcham bosilib chiqdi. Xursand-ligimning cheki yo'q edi. Keyinchalik yana bordim, yana chop etildi. Qarangki, tasodifiy uchrashuv sabab menda ijodga, mux-birlikga mehr uyg'ondi. Tez-tez maqola, lavha va ocherklar yozib, tuman va viloyat gazetalariga yubora boshladim. 1981-yilda texnikumi bitirib, Nurobot tumanidagi yo'l qurilish ekspluatatsiyasi boshqarmasida ish boshladim. Ish bilan birga ijodni ham

davom ettirdim. Tumanidagi "Sovetobod tongi" (hozirda "Nurobot") gazetasining deyarli har bir sonida maqolani chop etildi. Tahririyatda mena tajribali muharrir B.Shamsiyev, jurnalistlar B.Mahmudov, S.Xudoyorovlar qimmati maslahatlarini berib, ko'proq yozishga ruhlantirardi.


Bir kuni viloyat "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasi qoshida faoliyat olib borayotgan Ishchi-dehqon muxbirulari universitetiga tinglovchilar qabul qilinishi haqidagi e'ltonni o'qib qoldim. Hujjat va maqolalarim chiqqan gazetalarini ko'tarib, tahririyatga bordim. Guruh rahbari, jurnalist X.Nurullayev bilan uzoq subhatlash-gach, meni qabul qilishdi. 1986-1988-yillarda dasturga 59 nomdag'i kundalik gazetalar jalb qilingan. Uch yillik bu loyiha Madaniyat va ommaviy kom-

malliklarini obyektiiga muhrash sirlarini o'rgandik. Men bilan birga universitetda o'qigan J.Qayumova, Y.Atoev, U.Hanova, M.Rashidova, G.Eshmonovlar shu sohada ishlab ketishdi. Ularning ayrimlari viloyat, respublika gazeta-jurnallarida, respublika radio va televiedenisida faoliyat yuritmoqda. Ishchi-dehqon muxbiralarining V-respublika syezdiga delegat bo'lib qat-nashib, faxriy yorilqlarga ham ega bo'ldim. Ikkinchini kasbim muxbirlikni egallaganimdan juda xursand edim. Universitetni tugatib, qo'limizga "Lenin yo'li" gazetasining qishloq muxbir, degan guvohnoma berishgach, ko'p insonlar bilan tanishdim, uchrashdim, ular haqida ko'plab maqola, ocherker va lavhalarim gazetalarda chop etildi.

Mana, oradan qancha yillarda o'tib ketibdi. Asl kasbim boshqa bo'lsa-da, hanuzgacha o'zimni qishloq muxbiridek his qilaman. Tajribali ustozlardan olgan saboqlarning ta'siri bo'sla kerak, 73 yoshga kirmsan-da, hamon qo'limdan qalam tushmaydi, ni-malarindan yozgim kelaveradi. Dala-dash-turga chiqib, cho'pon-cho'lqlar, bobodeh-qonlar haqida ularning mehnatini ulug'lab maqolalar yozgim kelaveradi.

**Xolmurod QAHHOROV,**  
Paxtachi tumani,  
Qarnabota qishlog'i.

## GAZETA hammaga kerak(mi?)



### OBUNA YO'Q, PUL HAM

Rost, bugun ixtiyorli tarza obuna yo'q hisobi. Demak, tahririyatlarning moliyaviy ahvoli, jurnalistlarning "topish-tutishi" ham pasaygandan pasayib bormoqda. Buning bir qancha sababli bor, albatta. Ulardan biri, balki asosiyasi, gazeta mazmun-mundarijasi bugungi o'quvchi talablariga javob bermasligi bo'lishi ham mumkin. Bu, mustahriya (iste'molchiga) "istasang ham, istamasang ham shu", deyishga o'xshaydi.

Umuman, bugun bosma nashrilar "bo'lib o'tdi" kabilarni raqamli nashrlarga qoldirib, bloger, vayner yoki boshqa ijtimoiy tarmoq faollari qilolmagan ishni qilishi kerak. Aslida bu haqda avval ham ko'p aytilgan - gazetalar tahil, asoslantrilgan taklif berishi zarur. Ammo ko'ryapmizki, faoliyatini transformatsiya qilishga "erinayotganlar" ko'p.

Obunaning sustigi nashrning obunachilarga o'z vaqtida yetkazib berilmayotganligiga ham bog'liq. Istalgan bosma nashrda surishtiruv o'tkazing, gazeta o'quvchiga yetib bordimiyo'qmi, tahririyatga qiziq emas.

Bilamiz, yetkazib beruvchi tashkilotlar gazetalariga qo'shimcha narx belgilashi ortidan obunachi yanada qimmatroq to'lashiga to'g'ri keladi. Ayrin G'arb davlatlarida yetkazib berish tahririyatning zarariga ishlaydi. Ya'ni, ular nashrni yetkazib berish xarajatlarini reklama va e'lonlardan tushgan mablag'lar hisobidan qoplaydi. Shu kabi samarali boshqaruv hisobiga uncha rivojlanmagan Yevropa davlati - Polshada birgina "WPGOST" haftalik gazetasini 2 milliondan ziyod obunachi o'qirkun.

Umuman, gazeta jamiyat hayotining muhim qismi bo'lgan davlatlarda salmoqli maqolalar o'r'in olgan nashr sexdan chiqishi bilan 2-3 soat ichida obunachi qo'lda bo'la.

Shu o'rinda yana bir gap. Mahalliy nashrлarimiz vaqtiga vaqtli bilan o'z auditoriyalarini tahlil qilib turishi kerak, nazarimda.

### XORIJ TAJRIBASI

O'z vaqtida "AiФ" gazetasi 32 million nusxa chiqqani bilan Giness rekordlar kitobiga kirgan, deyishadi. Lekin hozir bu nashr ko'sratkichi 1 millionning nari-berisida chop etiladi. "AiФ" zamон talabini to'g'ri tush-unib, raqamlashtirishga o'tgan. Shuning uchun uni bir vaqtlar qog'oz formatdagi auditoriyasi (30-40 million) saytg'a "ko'chgan".

Bizda bosma nashrлar asosan obuna ortidan kun ko'radi. Vaholanki, xorija davriy matbuot reklama hisobidan moliyalashtiriladi. Aksar hollarda obunachi turli uslublar bilan rag'battantirilishini ham eshitgansiz. Misol uchun Turkiyada kitoblar, xususan, ensiklopediya taqdim etiladi. Ular "mahsulot"ni bozorda o'tkazish uchun potensial mijoz kutmaydi, mijozlarga taqdim qilish yo'ldan boradi.

Muhimi, rivojlangan davlatlarda ham matbuot turli ko'rinishda qo'lib-quvvatlanadi. Fransiyada gazeta va jurnallarni chop etish, tarqatish basorasi davlat subsidiyalari belgilangan. Ayniqsa, 2009-yilda prezident Nikolay Sarkozy tashabbusi bilan amalga oshirilgan maxsus dastur alohida ahamiyatiga ega. Aksiya davomida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirilar uchun gazetalariga yillik bepul obuna taqdim etilgan. Dasturga 59 nomdag'i kundalik gazetalar jalb qilingan. Uch yillik bu loyiha Madaniyat va ommaviy kom-

### MA'RIFATGA MAJBURLASH

Aslida xalqimiz, o'sib kelayogan avlod mutolaqa tashna, faqat shu tashnalikni qondirishning samarali va oqilona yo'llarini izlab topish kerak. Ayniqsa, farzandalrimiz bolaligidan matbuot bilan oshno qilsak, kitobxonlikni rivojlantrishga mustahkam poydevar qo'yan bo'lamic. Faqat buning uchun gazeta-jurnallar uchun obunaga ijobji ko'z bilan qaray olishimiz kerak. Afrikaning qashshoq bir mamlakati prezidenti shunday degandi: "Odamlarni ma'rifatga majburlashning yomon tonomi yo'q".

Rost, bugun biz odamlarni, yoshlarni gazeta-jurnal o'qishdan, kitob mutolaasidan uzib qo'syak, savodsiz avlodni tarbiyalagan bo'lamic.

### BIZDA GAZETXONLIKKA E'TIBOR YO'QMI?

Oddiy misol, Bir necha yil avval "Davlat boshqa-ruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari muassisligidagi davriy bosma nashrini qo'lib-quvvatlash va ular faoliyatini yanada rivojlantrishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjalat loyihalari (regulation.gov.uz) saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.

Loyihadan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarning gazeta va jurnallar xodimlarini maoshlarni mahalliy hokimiyat organlarning budjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan qoplash, sof foydani tahririyat hisobida qoldirish, davriy bosma nashrлar xodimlari malakasini oshirish, xususan, gazeta va jurnallar elektron nashrini yuritishda zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish kabi bir qator muhim vazifalar o'r'in olgan.

**Turdi TURSUNOV,  
mehnat faxriysi.**

# Jurnalistlarga ehtiyoj bor, ammo...

Kundalik hayotimizni axborotsiz tasavvur qila olmaydigan bir davrda yashayapmiz. Ertalab uyg'ongandan uyquga yotguncha yurtimizda va dunyoda bo'layotgan xabarlar bilan tanishamiz. Qo'limizdag'i mobil telefon orqali axborotlarni xoh matn, xoh video yoki audio shakida kuzatamiz. Axborot eshitmasdan, ko'rmasdan biror kunimiz o'tmayapti.

Ammo axborotni olish, tayyorlash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi kasb egalarining mashaqqatlari mehnatini hamma ham his etavermaydi. Nazarimda ularga bo'lgan ehtiyoj ortgan sayin, talab kamayib borayotgandek. Buni viloyat kambag' allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotidan ham bilish mumkin. Ayni paytda viyoyata jurnalist kasbi bo'yicha hech qanday vakant o'rni mavjud emas. Xo'sh, bunga sabab nima?

To'g'ri, majburiy obuna tugatilgach, ayrim gazeta va jurnallarga obuna keskin kamayib ketdi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viyoyat bo'limining ma'lumotiga ko'ra, 2023-2024-yillarda "Adolat sari", "Bahs", "Ulug'bek vorislari", "Intellekt" kabi tarmoq gazetalari chop etilmayapti. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viyoyat bo'limiga qarashli "Ijod yo'lli" gazetasini tugatildi. Boshqa ommaviy axborot vositalarida ham shtatlar qisqardi.

To'g'ri, jurnalist kadrlarga bo'lgan talab bir tomonidan kamaygani bilan ikkinchi tomonidan ularga ehtiyoj oshdi. Masalan, Prezidentimizning 2019-yil 27-iyunda "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari matbuot kotib shtati ochilib, axborot xizmatlari xodimlari ustuvor ravishida jurnalista sohasida olyi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar orasidan tayinlanishi belgilandi.

Ayni paytda viyoyatdagi davlat organlari va tashkilotlarda 71 nafar axborot xizmati xodimi faoliyat yuritmoqda. Ularning atigi 15 nafari ixtisosligi bo'yicha jurnalist mutaxassisligiga ega. Yuqoridagi qarorga amal qilinadigan bo'lsa, viyoyatda jurnalist kadrlarga ehtiyoj bor.

## TELEVIDENIYEGA TAYVOR MUTAXASSISLAR KELMAYDI

Bugun Samarcand viloyati teleradio-kompaniyasi eng ko'zga ko'ringan ommaviy axborot vositalasi hisoblanadi. Xo'sh, ushu muassasada jurnalist kadrlarga bo'lgan talab qanday?

- Televide niye va radioda jurnalist kadrlarga ajratilgan shtatlar to'lib bo'lgan, - deydi viyoyat teleradiokompaniyasi direktori Mirzo Ixtiyorov. - Hatto ayrim jurnalistlar yarini shtat birligida ishladi. Ayni damda teleradiokompaniyada 79 nafar xodim faoliyat yuritadi. Ularning 44 nafari ijodiy xodim bo'lib, shundan 16 nafari televide niye, 17 nafari radio va 11 nafari ijodiy ishlab chiqarishda mehnat qiladi.

Taassuf bilan aytish kerak, teleradio-kompaniyaga ishga kelayotgan yoshlarning bilim va iqtidori yetarli emas. Yosh jurnalistlarga olti oyдан bir yilgacha ish o'rgatamiz. Ba'zida bir yildan keyin ham ishni to'liq olib ketolmaydiganlari uchrab turadi. Jurnalist shunday kasbki, uni faqat nazaroya bilan o'rganib bo'lmaydi. Qachonki, olyi ta'lim muassasalarida nazaroya va amaliyot bir-biriga bog'lab o'rgatilsa, jurnalist kadrlar ommaviy axborot vositalariga tayyor mutaxassis bo'lib keladi.

## YANGI O'QUV YILDAN MEDIA MARKAZ ISHGA TUSHADI

Joriy yilda Samarcand davlat chet tillar institutini jurnalista (xalqaro jurna-



listika) yo'nalishining ilk talabalari bitirdi. Shu paytgacha jurnalist kadrlar faqat Toshkentdagi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanardi. Institut mas'ullari xalqaro darajadagi jurnalistlarni tayyorlashni maqsad qilib, ushu yo'nalishni ochishga muvaffaq bo'ldi.

- Joriy yilda institutimizning jurnalista (xalqaro jurnalista) yo'nalishini 27 nafar talaba bitirishni kerak edi, ammo 4 nafar talaba fanlardan qazrdor bo'lib qolganligi bois ularning 23 nafriga diplom berilyapti, - dedi institut o'qituvchisi Muxlisa Xudoyberdiyeva. - Xalqaro jurnalista yo'nalishida talabalarga kasbga oid fanlar bilan birga chet tili fani o'qitildi. Talabalarning ko'pchiligi chet tilini bilish darajasi bo'yicha imthon topshirgan, ayrimlariда til bilish sertifikasi mavjud.

